

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**X.А.Абдурасулов**

Экономическая история Туркестана в "Большой игре" Питера Хопкирка .....	338
<b>Sh.S.Shodiyeva</b>	
Afg'oniston matbuotining Buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir.....	343
<b>Sh.M.Abdusatorov</b>	
Gastroturizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy masalalari.....	348
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
XX asrning 20-yillarda Farg'ona viloyatida ta'lif tizimi (Farg'ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida) .....	353
<b>G'.A.Raxmonov</b>	
Farg'ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar .....	358
<b>M.Y.Umarova</b>	
Temuriy Malika Gavharshodbegim tug'ilgan oila va uning Amir Temur davridagi hayoti .....	361
<b>S.B.Yuldashev</b>	
The Faragina – a regular military structure in the Abbasid's army .....	366
<b>X.X.Mamajonov</b>	
Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixining o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari.....	373

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****D.Sh.Kodirova**

O'zbek tili konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug'atlarga kiritilishi .....	377
<b>N.T.Zaylobova</b>	
Muloqot xulqining oliv ko'rinishi .....	384
<b>D.O.Xamidova</b>	
Luqmon Bo'rixonning "jaziramadagi odamlar" romanida ruhiyat .....	389
<b>A.N.Nasirov</b>	
Xarakter evolyutsiyasining ruhiy-psixologik asosi .....	396

---

**TILSHUNOSLIK****Ф.Ш.Алимов, Р.А.Фахрутдинова**

Лингвистические факторы формирования письменной речи в условиях цифровизации.....	402
---	-----

**Талантбек кызы Альбина, К.С.Шакиров, Э.И.Ибрагимова**

Формирование информационно-коммуникационные готовности у педагогов дошкольного образования в условиях непрерывного профессионального образования .....	408
--	-----

**O.Q.Sobirov, Sh.I.Shokirov**

Ingliz tilida qurilish terminlarini semantik xususiyatlari.....	417
---	-----

**D.A.Ganiyeva**

To'liqsiz va bog'lama fe'llarda sinkretizm va polifunktionallik .....	422
---	-----

**A.M.Mamarasulov**

Leksik sistemaga onomasiologik yondashuv.....	426
---	-----

**N.Xamidov**

Turli tizimli tillardagi antroponimlarda erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi .....	432
--	-----

**C.Э.Саидова**

Мулоҳизаҳо оиди лингвистикаи ареалӣ дар мисоли шеваҳои аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	437
--	-----

**Г.М.Мансурова**

Проблемы понимания на слух у студентов технических вузов .....	441
--	-----

**Ф.А.Темирова**

Методологический анализ подходов к составлению идиоматического словаря на примере HSG: сравнение, особенности и рекомендации .....	445
--	-----

**Ш.М.Султонова, Г.Ф.Нишонова**

Теоретические предпосылки изучения антропонимов в переводческом аспекте.....	449
--	-----

**GASTROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI NAZARIY MASALALARI****НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ГАСТРОТУРИЗМА****SOME THEORETICAL ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF THE GASTROTOURISM SPHERE*****1Abdusatorov Sherzod Mavljonjon o'g'li******1O'zbekiston milliy universiteti, Antropologiya va etnologiya kafedrasи katta o'qituvchisi  
(PhD)******Annotatsiya***

*Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi an'anaviy taomlari misolida gastroturizm sohasini raqamlashtirishga oid masalalar ko'rildi hamda yechimlari mobil ilova misoli orqali ko'rildi.*

***Annotatsiya***

*В данной статье вопросы, связанные с цифровизацией сферы гастротуризма, рассматриваются на примере традиционных блюд Ферганской долины, а пути решения рассматриваются на примере мобильного приложения.*

***Abstract***

*In this article, the issues related to the digitalization of the field of gastrotourism are considered on the example of the traditional dishes of the Fergana Valley, and the solutions are seen through the example of a mobile application.*

***Kalit so'zlar:*** axborot texnologiya, mobil ilova, gastroturizm, platforma, turizm***Ключевые слова:*** информационные технологии, мобильное приложение, гастротуризм, платформа, туризм.***Key words:*** information technology, mobile application, gastrotourism, platform, tourism**KIRISH**

Ko'pgina madaniyatshunoslik, san'antshunoslik sohasidagi tadqiqotlar qatori etnologiya sohasidagi amaliy tadqiqotlar ham taomlarning o'ziga xosligini aniqlaydi. Shuning uchun taomlar muloqot vositasi sifatida qabul qilinadi. Jumladan, har qanday madaniyatda taomlar bilan bog'liq so'zlar tili tegishli grammatika, sintaksisni o'z ichiga oladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Uning tarkibiga jamiyat tuzilmalariga oid irearxik g'oyalari va unga oid tegishli tushunchalar kiradi[1] Amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosan etnik identiklik va insonlarning ma'lum taomlarga munosabati va ularni tayyorlash usullarining ramziy jihatlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan[2]. shuningdek, ular taomlanish bo'yicha kishilarning jinsi, yoshi bo'yicha qoidalar, ta'qiqlar va salomatlik uchun ahamiyati hamda ovqatlanishning o'zgarishi bilan bog'liq kasallikkarni o'rganib, jamiyatga targ'ib qilishga harakat qildilar[3]. Bugungi kunda ham taom va uning millat bilan aloqasi, xususan milliy taomlar haqidagi ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda[4].

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda turli o'zbek milliy taomlari qanday targ'ib qilinishi to'g'risida tobora muhim o'rinn egallab bormoqda.[5] Natijada taom va oziq ovqat mavzularida ijtimoiy medialar va uning tahlillari ham ko'paymoqda[6]. Mazkur tadqiqotda o'zbek milliy taomlarini targ'ib qilish uchun mobil ilovadan foydalanildi. Chunki hozir axborot texnologiyalari rivojlangan davrda o'zbek milliy taomlarning mobil ilovasini yaratish taomlar bilan bog'liq bilimlarni kengaytirish bilan bir qatorda, ular haqida oson ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, eng muhimi bu mamlakatga kelayotgan turistlar uchun yana bir qulaylikdir. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida turizmnii jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni[7]ga mos keladi. Negaki, ushbu mavzu etnoturizm (an'anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, taom tayyorlash va boshqalar) doirasida sayyoohlarni qabul qilish borasida aholiga zarur ma'lumotlar beradi. Demak, raqamlashtirish orqali gastroturizm imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi.

## TARIX

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

So'nggi vaqtarda O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida axborot texnologiyalarining o'rni haqidagi adabiyotlar soni ko'payib bormoqda. Biroq O'rta Osiyo xususan, Farg'ona vodiysi milliy taomlari va uning taqdimoti bo'yicha tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Bu borada internet tarmoqlarida o'zbek taomlar bilan bog'liq turli sayt va medialar mavjud bo'lsada, taomlarning etnologik o'ziga xosligi to'liq yoritib berilmagan. Ular ko'proq kulinariya sohalariga bag'ishlangan. Shu tufayli tadqiqot ishida taomlar masalasi keng ma'noda ya'ni Farg'ona vodiysida oziq-ovqat mahsulotlari, milliy ovqatlanish maskanlari, mehmondo'stlilik g'oyalari va boshqalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar tashrif buyurvuchi insonlarda shu hudud taomlari haqida tassavur uyg'otishga xizmat qiladi.

Buning uchun hozirgi davrda axborot texnologiyalardan unumli foydalangan holda har bir xalqning madaniyatini modellarini yaratish imkoniyati mavjud. Modellaشتirish tushunchasi hozirda ilm-fanning turli sohalarida keng foydalanilmoqda.

Shu o'rinda antropologiya va etnologiya sohasidagi tadqiqotlarda modellaشتirish va mobil ilova imkoniyatlardan foydalanish haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Antropologiya fanida ayrim tadqiqotlar tomonidan amalga oshirilgan.

XXI asr boshlaridan raqamli antropologiya sohasida nashrlar tobora ko'payib bormoqda. Mutaxasislar ularni: raqamli etnografiya metodologiyasi, raqamli texnologiyaning antropoligik tadqiqotlari va madaniyat, til va jamiyatga ta'siri, taomlar mavzusida ham kulinariya sohalari raqamlashtirila boshlandi[8]. Bu borada ayni vaqtarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, o'zbek milliy taomlari va u bilan bog'liq mintaqada shakllangan ovqatlanish madaniyatini mobil ilova targ'ib qilish mumkin.

Mobil ilova (inglizcha: Mobile app[9]) — ma'lum bir platforma (iOS, Android, Windows, Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan dasturdir[10].

Ko'pgina mobil ilovalar qurilmaning o'zida oldindan o'rnatiladi yoki ularni App, Store, Google Play[11] va boshqalar kabi onlayn dastur do'konlaridan bepul yoki pullik bilan yuklab olish mumkin.

Dastlab, mobil ilovalar elektron pochtani tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi, masalan, mobil telefon va GPS o'yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va Internetdan foydalanish va hak.

Bugungi kunda ko'plab xorijiy miqyosda android qurilmalar uchun mo'ljallangan HTML5, CSS, JS, React JS kabi maxsus dasturlar va shu kabi modellaشتirish dasturlaridan foydalanib kelinadi. Mazkur ilova (mobile app) O'zbekiston hududida ichki, tashqi sayohlikni rivojlantirish, gastroturizm sohasini raqamlashtirishda, O'zbekiston taomlarini keng miqyosda ommalashtirishda samarali foydalanish mumkin.

Internet orqali taom haqidagi nafaqat ma'lumotlar almashish, savdo qilish, balki onlayn tarzda ushbu hududning milliy taomini ko'rish imkonini taqdim etiladi. Bu esa turizmni yanada rivojalantirishga xizmat qiladi.

Turizm O'zbekistonda iqtisodiy sektorni, ayniqsa Farg'ona vodiysida ham ovqatlanish madaniyatini targ'ib qiladigan faoliyatni rivojlantirishning muhim metodlaridan hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda ham quyidagi maqsadlarni amalga oshirish ham ko'zda tutilgan edi:

1. Farg'ona vodiysining milliy taomlaridagi gastrohudud yaratish uchun tasvir aloqasidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish;
2. Farg'ona vodiysi milliy taomlari uchun ilova, dastur va veb-sayt bazasini loyihalash hamda ishlab chiqish;
3. Ommaviy axborot vositalari uchun materiallarni tayyorlash;
4. Farg'ona vodiysi tumanlarida ichki va tashqi sayyohlik uchun imkoniyatlarni doirasini tadbiq etish.

Ma'lumki, turizm – bu mahalliy va milliy miqyosida iqtisodiy rivojlanish uchun turki beradigan faoliyat turlaridan hisoblanadi. Lekin ushbu faoliyat turi faqatgina hudud resurslari, atrof-muhit bilan imkoniyatlar chegaralanib qolmaydi. Shu sababli gastroturizm uchun amaliy texnologiyalarini qo'llash, turizm sohasini sifatlari rivojlanishni barqaror daromad keltirvuchi sohaga aylantiradi. Bu esa turistlar va mintaqada gastroturizmi bilimlariga ega bo'lgan ehtiyojlariga qo'l qeladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Ovgatlanish madaniyati to'g'risidagi ilmiy adabiyotlarning xilma-xilligi;
2. Milliy taomlarni tayyorlash an'analar;
3. Farg'ona vodiysining har bir hududidagi milliy taomlar aholining turmush tarzi va atrof-muhitiga bog'liqligi.

Bundan ko'rish mumkinki, mobil ilova yaratish uchun gastroturizm imkoniyatlarini raqamlashtirishda mintqa tabiatni, turmush tarzni, urf-odatlari, madaniyati va tarixining qiymatlarini hisobga olish zarur hisoblanadi. Bu esa Farg'ona vodiysidagi milliy taomlar tayyorlaydigan maskanlarni aniqlash va ularni joylashuvni mobil ilovaga kirgizish bilan bog'liq[12]. Bu bilan mahalliy aholi va mehmonlar uchun asl o'zbek milliy taomlarini taqdim etishda onlayn tarzda ham ma'lumotlarni olishni osonlashtirish uchun kerak bo'ladi.


Farg'ona vodiysida taom bilan bog'liq tadqiqotlar natijasida milliy taomlar maskanlarini joriy qilishga yordam beradi. Taomlar bo'yicha tadqiqotlar ma'lumotlarini aniqlash, almashish, o'rganish, qo'llash, uzatish, so'ngra mobil ilovaga jalb qilingan maskanlar o'ttasida to'plangan ma'lumotlarni boshqarishga va boshqa O'zbekistonning viloyatlarida ham targ'ib qilish imkonini beradi. Bu albatta, jamiyatning farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu borada ta'lim sohasida ham etnoturizm, gastroturizm sohalarida joriy etilayotgan yangi innovatsiyalar qiymatini oshirish uchun bu kabi bilimlarni qo'llash imkoniyatlarga e'tibor qaratishni talab qiladi. Mobil ilovadan foydalanuvchilar tushunishni va turli tadqiqot loyihalari natijasida olingan bilimlar asosida ularni kontekst va vaziyatlarga moslashtirishni tanlashni xohlaydigan bir qator amaliy asoslar mavjud.

Axborot texnologiyalari tizmidan ma'lumotni tarqatish va Farg'ona vodiysining turistik marshrutlarida o'zbek taomlari haqidagi ma'lumotlardan ham foydalanish kerak. Bu borada Farg'ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar davomida to'plangan etnografik ma'lumotlar qo'l keladi.

To'plangan etnografik dala tadqiqotlari ma'lumotlarini modellashtirishda ikkita faoliyat turi mavjud.

1. Asosiy faoliyat (o'zbek milliy taomlariga oid ma'lumot to'plash usullari)
2. Mobil ilova orqali targ'ib etish.

O'zbek milliy taomlarini tasvirlar orqali yetkazish uchun mobil ilova va veb-saytdan foydalanishda ma'lumotlar bazasini ishlab chiqildi. Bu ma'lumotlar bazasini yaratishda albatta gastroturizm mutaxassislari xizmatlaridan foydalanish zarur bo'ladi.



## TARIX

### 1 -rasm . Gastroturizm metodologiyasi

1) **Asosiy ekspert guruqlarida** mintaqada tanlangan o'zbek milliy taomlar taomnomalari bo'yicha so'rovnomalardan foydalangan holda muhokama qilindi.

2) **Respondentlardan intervyu olishda** milliy taomlar bo'yicha mutaxassislardan, mahalla oqsoqollari, jo'rabsoshilar va hudud aholisidan olingan ma'lumotlarni kiritildi. Shuningdek, tadqiqotlar va so'rovnomalalar natijasida olingan vodiylar milliy oshxonalarining xususiyatlarini, tarixi, madaniyati va milliy taomlariga oid an'analar tahlil qilinadi.

3) **Milliy oshpazlar suhbatlar olib borish.** Suhbatdan o'zbek milliy taomlarning masalliqlari (mavsumiy ingredientlari) va tayyorlash tartibi hamda usullari (retseptlari) madaniy turizm yo'nalishlari uchun ovqatlanish madaniyati, e'tiqodlari va an'analarni o'rganishda foydalilanadi. Bundan tashqari ushbu mobil ilova albatta yangi tashkil etilayotgan mahalliy oshxonalarini tijorat nuqtai nazardan targ'ib qilishga ham qaratilgan.

4) **Milliy taomlar haqida turizm-mutaxassislar bilan muhokama qilish** Farg'ona vodiysida olingan natijalarni ekspertlar bilan birgalikda milliy taomlar bo'yicha ma'lumot yig'ishda tadqiqot uchun quyidagi metodlari kiritildi:

a) **Strukturaviy (qat'iy rejalashtirilgan) intervyu.** Tadqiqot uchun foydali bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish muhim deb hisoblangan masalalarga qaratiladi.

b) **Erkin suhbat.** Suhbat davomida javob berish va yozib olish uchun savol-javob qismlarini erkin tarzda tashkil etildi.

c) **Sur'atga olish va videoga tushurish. Raqamli fotokameralar va video kameralar** orqali milliy taom maskanlari ob'ektlari, taomlari, maskanlarning tasvirlari olingan va qaysi taomga ixtisoslashganligi, mijozlarga xizmat ko'rsatish haqidagi ma'lumotlar videolarga yozilgan. So'ng mobil ilova uchun joylashtirilgan.

d) **Milliy taomlar maskanlari joylashuvni Google Maps o'Ichash moslamalari GPS, joylashuv o'Ichash moslamalari (Telegram Maps)** orqali maskanlar xaritasida joylashtirilgan va oxirida bu joylashuv mobil ilova veb-saytga joylashtirildi.

Shuningdek, mobil ilova(Mobile App) uchun ma'lumotlarni to'plashda taomturizmni qo'llab quvvatlash va turistik ma'lumotlarni keng yoyish uchun milliy taomlar ro'yxati va joylashuvini aniqlandi. Olingan ma'lumotlardan tahlil qilish natijasida Farg'ona vodiysida joylashgan o'zbek milliy taomlari tayyorlanadigan 26ta maskanlar mobil ilova uchun kiritildi. Jumladan, ushbu maskanlar har xil o'zbek taomlariga ixtisoslashtirilgan.

### XULOSA

Xulosa qilib, Farg'ona vodiysidagi an'anaviy milliy taomlarning manzili bo'yicha raqamlashtirilgan ilova yaratilgan va Farg'ona vodiysiga oid o'zbek milliy taomlari aniqlanib, joylashuvlari belgilandi. Joylashuvni tez topishi uchun mobil ilova navigatori *Google Maps* bilan integratsiya qilindi. Jumladan, Farg'ona vodiysiga oid, *osh markazlari, turli kaboblar, sho'rvalar, somsalar* (*Oltariq somsa, Kosa somsa, Chinni somsa*), *mastava, dimlama, baliqdan tayyorlanadigan taomlar, turli xildagi non* kabi milliy taomlar tayyorlanadigan markazlar kontentda belgilandi. Kontent yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun, o'zbek milliy taomlariga oid etnografik ma'lumotlardan tashqari, turli milliy taom haqidagi rasmlar, videolar va medialar bilan ham to'ldirildi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Claude Levi-Strauss, "The Culinary Triangle," in *Food and Culture: A Reader*, eds. Carole Counihan and Penny van Esterik (New York, NY: Routledge: 2008), 36—43; Claude Fischler, "Food, Self and Identity," *Social Science Information* 27, no. 2 (1988): 275—92; Anne Murcott, "Food as an Expression of Identity," in *The Future of the Nation State: Essays on Cultural Pluralism and Political Integration*, eds. Verker Gustavsson and Leif Lewin (London: Routledge: 1996), 49—77; Elizabeth Keating, "Moments of Hierarchy: Constructing Social Stratification by Means of Language, Food, Space, and the Body in Pohnpei, Micronesia," *American Anthropologist* 102, no. 2 (2000): 303-20.
- Linda Keller Brown and Kay Mussell, eds., *Ethnic and Regional Foodways in the United States: The Performance of Group Identity* (Knoxville, TN: The University of Tennessee Press, 2001); Gaby Bamana, *On the Tea Road: A Journey into Mongolian Life and Culture* (Scotts Valley, CA: Createspace, 2012); Erik R. Scott, "Edible Ethnicity How Georgian Cuisine Conquered the Soviet Table," *Kritika: Explorations in Russian and Eurasian History* 13, no. 4 (2012): 831—58; Fabio Parasecoli, "Food, Identity, and Cultural Reproduction in Immigrant Communities," *Social Research: An International Quarterly* 81, no. 2 (2014): 415—39; Nir Avieli, "Local Food, Local Specialties, and Local Identity," in *The Handbook of Food and Anthropology*, eds. Jakob A. Klein and James L. Watson (London: Bloomsbury Publishing, 2016), 133—48.

3. Messer E/ Anthropological Perspectives on Diet// annual Review of Anthropology. 1984. N. 13. pp. 205-249; Nutritional anthropology 2012.
4. Arjun Appadurai, "How to Make a National Cuisine: Cookbooks in Contemporary India," *Comparative Studies in Society and History* 30, no. 1 (1988): 3—24; Richard Wilk, "Learning to be Local in Belize: Global Systems of Common Difference," in *Worlds Apart: Modernity through the Prism of the Local*, ed. Daniel Miller (London: Routledge, 1995), 110—33; Warren Belasco and Philip Scranton, eds. *Food Nations: Selling Taste in Consumer Societies* (New York, NY: Routledge, 2002); Hong Sik Cho, "Food and Nationalism: Kimchi and Korean National Identity," *The Korean Journal of International Relations* 46, no. 5 (2006): 207—29; Elise Billiard, "Searching for a National Cuisine," *Journal of Maltese History* 2, no. 1 (2010): 47—57; Michaela DeSoucey, "Gastronationalism: Food Traditions and Authenticity Politics in the European Union." *American Sociological Review* 75, no. 3 (2010): 432—55; Yael Raviv, *FalafelNation: Cuisine and the Making of National Identity in Israel* (University of Nebraska Press: Springer, 2015); Ronald Ranta, "Food and Nationalism: From Foie Gras to Hummus," *World Policy Journal* 32, no. 3 (2015): 33—40; and Atsuko and Ranta, *Food, National Identity and Nationalism*.
5. For a comprehensive review of studies on food and media see Roger Dickinson, "Food and the Media: Production, Representation, and Consumption," in *Handbook of Food Research*, eds. Anne Murcott, Warren Belasco, and Peter Jackson (London: Bloomsbury Academic, 2016), 439—54.
6. Eric McGlinchey and Erica Johnson, "Aiding the Internet in Central Asia," *Democratisation* 14, no. 2 (2007): 273—88; Ramesh Srinivasan and Adam Fish, "Internet Authorship: Social and Political Implications within Kyrgyzstan," *Journal of Computer-Mediated Communication* 14, no. 3 (2009): 559—80; Neil Melvin and Tolkun Umaraliev, "New Social Media and Conflict in Kyrgyzstan," *SIPRI Insights on Peace and Security*, no. 2011/1, August, 2011, [www.sipri.org/sites/default/files/files/insight/SIPRIInsightli01.pdf](http://www.sipri.org/sites/default/files/files/insight/SIPRIInsightli01.pdf); Cai Wilkinson and Yelena Jetpyspayeva, "From Blogging Central Asia to Citizen Media: A Practitioners' Perspective on the Evolution of the Neweurasia Blog Project," *Europe-Asia Studies* 64, no. 8 (2012): 1395—414; Rustamjon Urinboyev, "Establishing an 'Uzbek Mahalla' via Smartphones and Social Media: Everyday Transnational Lives of Uzbek Labor Migrants in Russia," in *Constructing the Uzbek State: Narratives of Post-Soviet Years*, ed. Marlene Laruelle (London: Lexington Books, 2017), 119—48; Manja Stephan-Emmrich, "iPhones, Emotions, Mediations: Tracing Translocality in the Pious Endeavours of Tajik Migrants in the United Arab Emirates," in *Mobilities, Boundaries and Travelling Ideas: Rethinking Translocality Beyond Central Asia and Caucasus*, eds. Manja Stephan-Emmrich and Philipp Schroder (Cambridge: OpenBook Publishers, 2018), 291—317.
7. "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли Фармони <https://lex.uz/docs/4143188>
8. Соколовский С.В. Киборги в киберпространстве: современные исследования в области кибер и цифровой антропологии. Этнографическое обозрение. 2020 № 1. С. 5—22.
9. Ушбу атама 2007-йилдан бери жуда машҳур бўлиб, 2010-йилда Америка Диалектик жамияти томонидан "йил сўзлари" рўйхатига кирилган.
10. [ПНСТ 277-2018 Российская система качества. Сравнительные испытания мобильных приложений для смартфонов. ПНСТ от 26 июня 2018 года №277-2018](http://docs.cntd.ru/document/1200159701). <http://docs.cntd.ru/document/1200159701>
11. Google Play Store - ilovalar do'kon, shuningdek Google shirkatidan o'yinlar, kitoblar, musiqa va filmlar do'kon, uchinchi tomon kompaniyalariga, Android operatsion tizimli qurilmalar egalariga turli ilovalarni o'rnatish va sotib olish taklif qilish imkonini beradi.
12. Narong Sompong, Nattaphon Rampai, and Cherdpong Kheerajit. (2015). *Knowledge management of local wisdom model for tourism along the route of lower central provinces of Thailand*. TOJET: *The Turkish Online Journal of Educational Technology - August 2015*, pp. 271-276.